

“O‘zbekiston zoologiya fani: hozirgi zamon muammolari va rivojlanish istiqbollari” mavzusidagi anjuman haqida

Bugun O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Zoologiya institutida “O‘zbekiston zoologiya fani: hozirgi zamon muammolari va rivojlanish istiqbollari” mavzusidagi IV respublika ilmiy-amaliy anjumani o‘z ishini boshladi. Anjumanning asosiy maqsadi-zoologiya fanining dolzarb muammolari va rivojlanish istiqbollarini, hayvonot dunyosini saqlash va barqaror foydalanish, uni muhofaza etish va monitoring qilishga qaratilgan.



Anjuman doirasida O‘zbekiston tabiatidagi noyob hayvonlar, ularni o‘rganish va turlarini asrab qolish uchun institut ilmiy xodimlari o‘tkazgan ekspidetsiyalari haqida roliklar namoyish qilindi. Noyob hayvon turlari-O‘zbekiston tabiati xazinasidir. Shu bois ham bu kabi ilmiy anjumanlar O‘zbekiston tabiati faunasini asrash uchun muhim ahamiyatga ega.